



NODAVLAT TA'LIM – JAMIYAT INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL

Karimova Saida

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21889758>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 08-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 11-avgust 2026 yil

KEYWORDS

ta'lim, xususiy ta'lim, mehnat bozori, jamiyat ravnaqi, raqobatbardosh kadr, inson kapitali.

ABSTRACT

Maqolada jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va intellektual rivojlanishida nodavlat ta'limning o'rnini kompleks tahlil qilingan bo'lib, Yangi O'zbekistonda aholi sonini jadal o'sishi sharoitida ta'lim muassasalari orqali inson kapitalini yuksaltirish, mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlash hamda ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon[1] bo'lib, inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi, jamiyatda o'rnini topishga xizmat qiluvchi asosiy faktor hisoblanadi. Bugungi ilm-fan yutuqlari taraqqiy etgan dunyoda muayyan davlatning xalqaro maydondagi obro'si, qudrati, raqobatbardoshligi inson kapitalining sifatiga bog'liq bo'lib, ushbu sifat asosini albatta bilim tashkil etadi. Aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil qiladigan O'zbekiston kabi demografik o'sish faol mamlakatda mehnat bozori talablariga moslashuvchan kadrlarni tayyorlash har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi. Albatta, sifatli ta'lim olishga tobora ortib borayotgan ehtiyojni faqat va faqat davlat byudjetidan to'liq qoplash juda mushkul. Bunday zaruriy vazifani amalga oshirish uchun ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini yaratish lozim. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda nodavlat ta'limga e'tibor kuchayib, keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilib, nodavlat ta'lim tashkilotlarining huquqiy jihatdan maqomlari aniq belgilanib, ta'lim bozorida sog'lom va teng raqobatga asoslangan muhit yaratildi. Ayni damda nodavlat ta'lim shunchaki davlat tizimini to'ldiruvchi, uni faqatgina iqtisodiy yukini yengillatuvchi tarmoq bo'lib qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy transformatsiyasiga xizmat qiluvchi mustaqil drayverga aylanib ulgurdi deyish mumkin. Shu nuqtai-nazardan nodavlat ta'lim muassasalalarini jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini xolis baholash, shuningdek, mazkur sektorni yaqin va uzoq kelajakda rivojlanish trayektoriyasini ilmiy tahlil etish hamda asoslash muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim tizimini isloh qilish, uning shaxs va jamiyat hayotiga ta'siri masalalari hamisha e'tiborda bo'lib, ko'plab olimlarimiz tadqiq etishgan.

Xorijiy olimlardan Daniel C. Levy xususiy ta'lim tizimi, davlat va xususiy ta'lim o'rtasidagi raqobat masalalarini [2] tadqiq etgan bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan A.Umarov, N.Hakimovlar O'zbekistonda nodavlat ta'limni rivojlanish xususiyatlari, ushbu jarayonning bugungi islohotlar bilan bog'liqligini tahlil etishgan[3]. Shuningdek, M.Akmalova, M.Yoqubjonova nodavlat ta'lim tashkilotlarining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini yanada rivojlantirish [4] masalalarini tadqiq etishgan.

Tadqiqotni olib borishda tizimli tahlil, ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish, usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nodavlat ta'lim sektori jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etib, inson kapitali va sifati o'sishi, davlat byudjeti yukini kamayishi, ta'lim tizimida sog'lom raqobat muhitini vujudga kelishida, bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratilsa nodavlat ta'lim muassasalari tez moslashuvchan xususiyatga ega bo'lib, mehnat bozorida paydo bo'layotgan zamonaviy kasblar, jumladan ayni zamonda ehtiyoj ortib borayotgan sun'iy intellekt, zamonaviy menejment va shu kabi bir qator sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlashni tez fursatlarda yo'lga qo'ya oladi. Bu borada davlat OTMlaridan moslashuvchanroq bo'lib, jamiyatda sifatli, raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishni tezlashishiga ko'maklashadi.

Xususiy ta'lim muassasalarini rivojlanib borishi davlat byudjeti mablag'larini tejallishiga, tejalgan mablag'lar boshqa maqsadlarga, masalan, aholining kam ta'minlangan qismini qo'llab-quvvatlashga yoki chekka hududlardagi ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilishi mumkin.

Ta'lim sohasida nodavlat sektorning paydo bo'lishi ta'lim tizimida monopoliyani oldini oladi. Endilikda raqobat vujudga kelib, har bir talaba uchun kurash boshlanadi. O'z navbatida bu ta'lim sifatini oshishiga, xalqaro andozalarga mos pedagogik texnologiyalar, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishiga, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ya'ni chet el universitetlari bilan qo'shma dasturlarni ko'payishiga olib keladi. Kim ilg'or bo'lsa, talaba shuniki qabilida kurash boshlanadi.

Nodavlat ta'lim yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasining oshishi ishsizlik va noqonuniy migratsiya xavfini kamaytiradi. "Nodavlat ta'lim muassasalari ayniqsa hududlarda, chekka tuman va qishloqlarda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki markaziy shaharlarda mavjud imkoniyatlar ko'plab bo'lsa-da, ayrim chekka hududlarda ta'lim xizmatlari yetarli emas. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari yoki kichik o'quv markazlari shu bo'shliqni to'ldirib, mahalliy aholiga sifatli ta'lim xizmatini taqdim etmoqda. Natijada hududiy tengsizlik kamayadi, bolalar va yoshlar uchun bilim olish imkoniyatlari kengayadi. Bu, o'z navbatida, hududlarda inson kapitalini rivojlantirish, migratsiya oqimini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi"[5].

Nodavlat ta'limning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyos bo'lsa-da, masalaning ikkinchi jihati ham mavjud. Bu bir qator masalalarni o'rtaga tashlaydi. Nodavlat ta'lim rivojlanishining ehtiyot bo'lmasa xavf tug'diradigan jihatlaridan biri, ta'lim mo'may daromad manbayi, biznes obyektiga aylanib, akademik talabchanlikni pasayishidir. Agar nodavlat ta'lim

muassasalari ta'lim sifatiga e'tibor qaratmay, kontrakt tushumlariga bog'lanib qolsa, daromad ortidan quvsa, sifatsiz, mehnat bozorida o'z o'rnini topa olmaydigan, ko'nikmasiz kadrlarni ko'paytiradi. Natijada jamiyatda diplomli ammo malakasiz kadrlar paydo bo'ladi. Shuni inobatga olinsa, akreditatsiya tizimlarini shaffof va samarali yo'lga qo'yish lozim bo'ladi.

Xususiy ta'lim muassasalarida o'qish uchun to'lovlarni davlat muassasalariga nisbatan ancha yuqoriligi jamiyatda tabaqalanishni keltirib chiqarishi, kam ta'minlanga oilalarni farzandlarini imkoniyatini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun, davlat-xususiy sherikchiligini yo'lga qo'yish, xususiy ta'lim muassasasida ham iqtidorli, ammo kam ta'minlangan yoshlar uchun grantlar ajratish masalasiga ham e'tibor qaratish lozim.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ham ilmiy-tadqiqot olib borish uchun sharoitlar, laboratoriyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy yordam berish lozim. Bundan tashqari, davlat ta'lim muassasalari kabi nodavlat ta'lim muassasalari ham texnik va biznes yo'nalishlar bilan kifoyalanmay, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni shakllantirishga qaratilgan, axloqiy mezonlarga asoslangan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ham e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nodavlat ta'lim jamiyatning ilmiy-ijtimoiy rivojiga yordam beruvchi omil bo'lib, ta'lim tizimida sog'lom raqobat vujudga kelishida, raqobatbardosh kadrlarni shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nodavlat ta'limning rivojlanishi, kelajagi va uning jamiyat uchun keltiradigan nafi ularga bo'lgan munosabatga bog'liq. Davlat ularni qo'llab-quvvatlashi, shu bilan birga, jamiyatga keltiradigan foydasi davlat tomonidan oqilona va shaffof regulyatsiya qilinishi lozim. O'z navbatida xususiy ta'lim muassasalari ham ijtimoiy mas'uliyatni anglab yetishlari shart. Ta'lim sifati yuqori, yuksak axloqiy mezonlarga asoslangan nodavlat ta'lim muassasasigina mamlakatni raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlab, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim to'g'risidgi qonun. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
2. Daniel C. Levy. Oxford University Press, 2024. – P.336
3. A.Umarov, N.Hakimov. O'zbekistonda nodavlat ta'lim. Monografiya/matn/. Toshkent: "Firdavs-Shoh nashriyoti", - 2025. – 338 b.
4. M.Akmalova, M.Yoqubjonova. Nodavlat ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimidagi o'rni, ahamiyati // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 3. – B.867-873
5. T.Samadova. Nodavlat tashkilotlarning ta'lim sohasida amalga oshirayotgan faoliyatiga nazar // Journal of iqro – 2025. – № 2. – B.109-111
6. Karimova, S. (2026). DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJIDA NODAVLAT TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI. Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar, 3(6), 38-40.
7. Said, K. (2026, May). DEVELOPMENT AND DISTINCTIVE FEATURES OF THE NON-STATE EDUCATION SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN. In Symposium on Natural and Applied Sciences (Vol. 1, No. 5, pp. 78-82).